# SAMARQANDVILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2023-yil yanvar-avgust holatiga

Viloyat statistika boshqarmasiga **2023-yilning yanvar-avgust oylari davomida** jismoniy va yuridik shaxslardan 123 ta murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning 97 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 24 tasi sayyor qabuldan hamda 2 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlardir.

Jamidan 80 tasi elektron pochtali orqali, 19 tasi yozma ravishda hamda 24 tasi og‘zaki murojaatlardir.

## *MUROJAATLAR:*
## *(mazmun-mohiyat bo‘yicha)*




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlilga ko‘ra, 11 tasi statistik ma’lumot so‘ralgan, 40 tasi korxona faoliyati to‘g‘risida 13 tasi nafaqa hujjatlari to‘g‘risida so‘ralgan, qolgan 59 tasi boshqa turdagi masalalar yuzasidan so‘ralgan murojaatlardir.

# HUDUDLAR BO‘YICHA TAQQOSLAMA TAHLILI (soni birlikda)




Viloyat statistika boshqarmasiga Samarqand shahridan 93 ta, 10 ta Samarqand tumanidan, 4 ta Ishtixon 3 ta Paxtachi, 5 ta Urgut, 3 ta Kattaqo‘rg‘on shahar, 5 ta Toyloq tumanlaridan nisbatan ko‘proq murojaatlar kelib tushgan.

# MUROJAATLARNI KO‘RIB CHIQISH HOLATI




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning barchasiga o‘z vaqtida chora ko‘rildi. Rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

# TURLARI BO‘YICHA MUROJAATLAR




Tahlillarga ko‘ra, murojaatlarning 23 tasi jismoniy shaxslar va 100 tasi yuridik shaxslarning murojaatlariga to‘g‘ri kelgan.

**Eslatib oʻtamiz:**

Oʻz faoliyatingizda statistika idoralari bilan bogʻliq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma’lumot olishni xohlaysizmi, quydagi

"Ishonch telefoni"

**(66) 235-58-95**

Pochta manzili - **www.samstat.uz**

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm2.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.**


**Viloyat statistika boshqarmasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomini nazorat qilish boʻlimi

**Nashr uchun mas’ul:** **F. Sattarov**

(66)235-58-95